

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

61040200 – Yo'l harakatini tashkil etish
MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat transport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" 06 dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. Umumiy tavsifi

6104200 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 61040200 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Yo'l harakatini tashkil etish, transport oqimlarini boshqarish, transportlarning xavfsizligini baholash, transport korxonalarida harakat xavfsizligi faoliyatini tashkil etish, yo'l-transport xodisalari va baholash ekspertizalarini tahlil etish, transportdan unumli foydalanishga va harakat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan inson faoliyati vositalari, usullari va yo'llari bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat tartibini saqlash departamenti yo'l harakati xavfsizligi xizmati, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, transport korxonalarida harakat xavfsizligi va yo'l harakatini tashkil etish xizmati faoliyati;

yo'l-transport xodisalarini ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar;

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi boshqarmalarida harakat xavfsizligini ta'minlash faoliyati.

6104200 – Yo'l harakatini tashkil etish bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

6104200 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda sohaga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

yo'l harakatini tashkil etish va boshqarishga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish va ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

yo'l harakati faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

yo'l harakati jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora tadbirlarni va resurslarini rejalashtirish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va monitoringini olib borish;

yo'l harakatini tashkil etishda texnik vositalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni qo'llay olish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida tashish jarayonlarini nazorat qilish;

transport va piyodalar oqimlarini xavfsiz va sifatli boshqarish;

yo'l harakatini boshqarish jarayonini tashkil qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

yo'l harakatini tashkil etishda atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

yo'llar va sun'iy inshootlarining harakat xavfsizligi qismi bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshirish;

transport sohasida yo'l harakati xavfsizligi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni loyihalash;

yo'llar va sun'iy inshootlari loyihalarini o'rganish hamda ularning harakat xavfsizligiga mosligi bo'yicha xulosalar berish;

ko'cha-yo'l tarmoqlarida harakatni tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish;

yo'l harakati xavfsizligi jarayonining, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda yangi boshqaruv-texnologik loyihalarini yaratish;

yo'l harakatini tashkil etish sohasida samarador yo'nalishlar loyihalarini yaratish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, tuzatish va yo'l harakatiga xizmat ko'rsatish;

ko'cha-yo'l tarmoqlarida harakat xavfsizligini ta'minlashda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsata olish;

amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan texnika vositalaridan foydalanish;

yo'l harakatni tashkil etish va boshqarishda qo'llanilayotgan ilg'or texnologik tadbirlarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish;

yo'l harakatni tashkil etish bo'yicha to'liq hajmdagi zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirish;

yo'l harakatni tashkil etish bo'yicha loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

yo'l tarmoqlarining real sharoitlarida yo'l harakatini tashkil etish usullarini qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

yo'llar va sun'iy inshootlar loyihalarini, shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalari va avtomatlashtirilgan tizimlarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;

transport oqimlarini modellash ko'nikmalariga ega bo'lish;

soha bo'yicha ilg'or statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

yo'l harakatini tashkil etish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

yo'l harakatini tashkil etish hodimalarining asosiy vazifalarini bilishi, transport inshootlari, jihozlari va transport vositalari to'g'risida asosiy ma'lumotlarni tahlil qilishi, yo'l harakatini tashkil etish ko'rsatkichlarini bilishi;

yo'l-transport xodisalari bo'yicha va transport baholash ekspertizalarini o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;

yo'l harakatini tashkil etishni ta'minlovchi xo'jaliklar faoliyati va tuzilishini bilishi;

yo'l harakatini tashkil etishda transport o'tkazish qobiliyati hisobining usullari va uni bajarish tartibi, tashkiliy texnikaviy va rekonstruktiv tadbirlar, nostandart vaziyatlarda harakatni tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha uchunchi bosqich oltinchi semestrda 4 haftalik va to'rtinchi bosqichning sakkizinchi semestrda 15 haftalik uzluksiz malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	2100	70	1-7
1.01	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	XT11208	Xorijiy til	240	8	1,2
1.04	FIZ11210	Fizika	300	10	1,2
1.05	OMA112314	Oliy matematika	420	14	1,2,3
1.06	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.07	TTAT1204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.08	MKG1106	Muhandislik va kompyuter grafikasi	180	6	1
1.09	SIM1704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	7
1.10	FAL1304	Falsafa	120	4	3
1.11	EKO1404	Ekologiya	120	4	4
1.12	HFX1604	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	6
Avtomobil transportida yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	YHQ 13412	Yo'l harakati qonunchiligi	360	12	3,4
1.14	YHQHXA11210	Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi asoslari	300	10	1,2
1.15	YLQUF1706	Yo'llarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish	180	6	7
1.16	HTSMOU1706	Haydovchilarni tayyorlash, stajirovkasi va malakasini oshirish uslubiyoti	180	6	7
1.17	YHTE14512	Yo'l harakatini tashkil etish	360	12	4,5
1.18	YHBTV16710	Yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalari	300	10	6,7
1.19	YTHET14512	Yo'l-transport hodisalari ekspert tahlili	360	12	4,5
1.20	TVX1506	Transport vositalari xavfsizligi	180	6	5
1.21	YTBE1506	Yo'l-transport baholash ekspertizasi	180	6	5
1.22	YHIR16710	Yo'l harakati infratuzilmasini rejalashtirish	300	10	6,7
2.00		Tanlov fanlari	1380	46	3-7
Kvalifikatsiya		Yo'l harakati muhandisi (avtomobil transporti)			
Temir yo'l transportida yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha majburiy fanlar					
1.13	MK1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.14	TYTA1206	Temir yo'l transporti asoslari	180	6	2
1.15	TFQPHXA13412	Texnikaviy foydalanish qoidalari va poyezdlar harakati xavfsizligi asoslari	360	12	3,4
1.16	YTITEB13412	Yo'lovchi tashish ishlarini tashkil etish va boshqarish	360	12	3,4

1.17	TYFIB156716	Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish	480	16	5,6,7
1.18	YTIB156712	Yuk va tijorat ishlarini boshqarish	360	12	5,6,7
1.19	TYBU156712	Temir yo‘l bekatlari va uzellari	360	12	5,6,7
1.20	TYTBAT1670 8	Temir yo‘l transportida boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari	240	8	6,7
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	3-7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Yo‘l harakati muhandisi (temir yo‘l transporti)</i>			
		Jami:	6180	206	
		Malakaviy amaliyotlar	1020	34	6,8
		Davlat attestatsiyasi			8
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ilmiy-tadqiqot, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, yo'l harakatini modellashtirish, yo'l harakatini tashkil etish, harakat xavfsizligini tashkil etish, statistik ma'lumotlar, transport va piyodalar oqimlarini boshqarish, yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalari va avtomatlashtirilgan tizimlari, haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, stajirovkasini va malaka oshirishini tashkil etish, yo'l harakatini kompleks rejalashtirish, yo'l harakatida sug'urta ishi, yo'l harakatini tashkil etish tadbirlarini iqtisodiy asoslash.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  **O.K. Abduraxmanov**

202_ yil "____" _____
M.O' 


KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **M. Boltabayev**

202_ yil "____" _____
M.O' 

**O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi**

Vazir  **I. Abdugafarov**
o'rinbosari

202_ yil "____" _____
M.O' 

O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX

Boshliq o'rinbosari  **E. Bozorov**

202_ yil "____" _____
M.O' 

**"Temiryo'linfratuzilma" AJ
bosh direktori**

S. Norqabilov

202_ yil "____" _____
M.O' 

